



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 22-mart, № 60 (8683)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



YANGI KUN, YANGI MAVSUM, YANGI HAYOT NAFASI

Poytaxtimizdagi ko'p tarmoqli "Humo Arena" sport kompleksida o'tkazilgan Navro'z bayrami tantanalaridan reportaj



Bahor... Qahraton qish zamin yuzidan oppoq harir ko'rpasini ko'tardi. Nuroniy tog'lar ortidan mo'ralagan quyosh o'z nurlari bilan borliqni ohista erkabal uyg'otdi. Ko'klamning iliq va xushifor sabolari yurtimiz uzra mayin esa boshladi. Daraxtlarga kurtak bitdi, bolalarlar gulzorlar tomon ucha boshladilar. Maysalar tuproq bag'ini yorib, qad rostladi. Olam yashillikka, yaxshilikka burkandi.

Borliqda Navro'z ifori kezadi. Bir kundayoq o'riklar gullab yuboradi. Boychechaklar, chuchmomalar bodrab, qir-u adirlar va sayhonliklarga kamalrang jilo baxsh etadi. Ariqlar shildirab, ona tabiatning mo'jizaviy simfoniyasiga jo'r bo'ladi.

Qalblarda ham bahor tarovatiga oshuftalik, ezgulikka kamarbastalik, yaratuvchanlik kayfiyati, baland ruh, g'ayrat-shijoat jo'sh uradi. Zotan, borliqdagi yangilanish, yasharish ko'ngillarga ham ko'chmasligi mumkin emas. Ulug' bobomiz, shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda:

Nasime g'uncha ichidin chu yoydi gul atrin,

Dimog'larg'a yetardin ne chora,

ey hamdam,

Darhaqiqat, gullar atrin yoygan nasim dimog'larni qitiqlab, qalblarni to'liqlantiradi. Butun xalq bahorgi tengkunlikni, yangilanish ayyomini intiq-intizor kuta boshlaydi...

Mana, o'kamizga Navro'z kirib keldi. Saharxey bobolarning nuroniy chehrasidan, duogo'y momolarning ezgu tilaklaridan, tongni beshik quchib qarshilagan onalar allasidan boshlandi bu kun.

2024-yil 21-mart. "Humo Arena" shodiyonaga munosib bezatilgan.

Nurafshon sahna uzra ona tabiatning betimsol qudrati namoyon. Anvoiy chechaklar xush ifor taratadi. Qiyo'os gullagan o'rig-u bodomlar ko'rinishlari yuraklarni totli hisga to'ldiradi. Katta monitorlarda ko'klam manzaralari: yurtimizning maftunkor tabiati, chiroy ochgan bog'lar, go'dak nafasidek beg'ubor shabboda esgan adirlar... Bunyodkorlik, yaratuvchanlik namunalar... Obod manzillarda umrguzaronlik qilayotgan yurtdoshlarimizning gulgun chehrasi... Yuqoriga o'rnatilgan monitorda moviy osmonimiz aksi, tinchlik va baxt elchisi — qaldirg'ochlar parvozi. Umuman aytganda, butun sahna bo'yab uyg'onish, yangilanish, yasharish surati va siyrati.

Bu yerga senatorlar va deputatlar, hukumat a'zolari, fan, madaniyat, sport va san'at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg'orlari, tadbirkorlar, tabarruk otaxon-u onaxonlar, turli sohalarda mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari tashrif buyurgan.

Chorlov musiqasi yangraydi. So'z O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga beriladi.

Bayram tantanasiga yig'ilganlar davlatimiz rahbarini qarsaklar bilan kutib oladi.

Prezidentimiz barchani yangilanish va yasharish ayyomi bilan samimiy qutlar ekan, Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish imkonligini ta'kidladi. "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!"

degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning oliyjanob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilayotganini, yurtimiz qiyofasi kundan-kunga obod va go'zal bo'lib borayotganini qayd etdi.

Shu o'rinda Navro'z tantanalarining "Humo Arena"da tashkil etilishida ham ramziy ma'no borligiga urg'u berish joiz. Bu, bir tomondan, so'nggi kunlarda havoning so'vib, haroratning biroz pasaygani, yomg'ir yog'ib, bayramni ochiq maydonda o'tkazish imkoniyati cheklangani bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqimizning azaliy orzu-umidlari ifodasi o'laroq bunyod etilgan mazkur muhtasham saroyning nomi-yu ko'rkam quyiyoqasi, zamonaviy shart-sharoitlari Navro'z falsafasiga, ruhiga g'oyat uyg'unligidir. Humo — tinchlik-osudalik elchisi. Ezgulik va baxt, qut-baraka timsoili. Navro'zning mohiyatida ham totuvlikka, hamjihatlikka, obodlikka da'vat bor. "Hamal kirdi — amal kirdi", deya yeng shimarib, mehnat qilishga kirishgan har bir insonning rizqi to'liq, dasturxon to'kindir.

"Humo Arena" — sportni sevadigan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbidagi porloq niyatlar ro'yobi. Har tomonlama sog'lom avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladigan muhim inshoot. Navro'zning mazmuni ham yoshlar ruhiyatiga yaqin. Unda yasharishga intilish, jisman va ma'nan barkamollikka undov mujassam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, aziz va muhtaram vatandoshlar!

Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan hurmatli mehmonlar!

Siz, qadrdonlarimni, ko'p millatli butun O'zbekiston xalqini barchamiz sog'inib kutgan Navro'zi olam bilan samimiy muborakbod etishdan baxtiyorman.

Bugun faslar almashib, yer-u ko'kda ilohiy mo'jizalar yuz bermoqda. Yangi kun, yangi mavsum, yangi hayot nafasi boshlanmoqda. Tabiat uyg'onishi bilan zimiston kechalardan zerikkan ko'ngillar yasharib-yayramoqda.

Albatta, bugungi shodiyona bayramni el-yurtimiz bilan muazzam "Yangi O'zbekiston bog'i"da o'tkazishni niyat qilgan edik. Lekin hammamiz ko'rib turibmiz — so'nggi kunlarda havo so'vib, harorat biroz pasayib qoldi. Bugun obirahmat yomg'irlari bilan osmondan rizq-u ro'z, qut-baraka yog'moqda. Hammamiz bu holatni shukronalik bilan qabul qilamiz.

Mana shu muhtasham saroyda turib, barcha-barchangizga eng ezgu va samimiy tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Xush kelibsan yurtimizga, go'zal Navro'zi! Olam sen bilan nurga to'lsin! Sharqona Yangi yil hammamizga muborak bo'lsin!

Qadrlidostlar!

Mana shu quvonchli kunlarda ona zaminimiz, jonajon O'zbekistonimiz bamosoli ulkan va muhtasham bir sayilgohga aylanmoqda. Farg'ona vodiysi-yu Surxon va Qashqadaryo tog'larida, Xorazm va Qoraqalpog' diyorida,

Samarqand-u Buxoro, Navoiyning go'zal bog'larida, Jizzax-u Sirdaryo kengliklarida, Toshkent vohasining yam-yashil adirlarida, azim poytaxtimiz maydonlarida el-yurtimiz sayil-tomoshalar o'tkazib, Navro'zni shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda.

Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish mumkin. "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning oliyjanob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaviy korxonalar, shinam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundan-kunga obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Inson qadriini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizga mehr va e'tibor ko'rsatish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagi do'stlik va hamjihatlik muhiti, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori yuksalmoqda.

Navro'zi olamning insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlariga uyg'un va hamohang bunday ishlarimizni biz kelgusida yanada kengaytiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Navro'zi olam bizni butun borliqni, avvalambor, yer va suv, hayvonot va o'simlik dunyosini, sof

havoni asrab-avaylab, ona tabiatga mehribon farzand bo'lib yashashga da'vat etadi.

Ana shunday ezgu chorlovga javoban bugungi kunda yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, Navro'z hasharlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida millionlab mevali va manzarali ko'chatlar ekilmoqda, yangi bog'-u rog'lar barpo etilmoqda.

Qadimiy qo'shiqlarimizda Navro'z xazinalar ochiladigan baraka ayyomi, deb tarannum etiladi. Mana, bugun mirishkor dehqon va fermerlarimiz, bog'bon va chorvadorlarimiz yangi mehnat mavsumini boshlammoqda.

Ilohim, bobodehqonlarimizning omadini, baxtini bersin!

Daryolarimiz suvga to'lib, hosilimiz mo'l bo'lsin! Aziz do'stlar!

Yoshlik — inson umrining bahori, uning Navro'z bayramidir. Yoshlik — odamzod kamolot osmonida yulduzdek charaqlaydigan bebaho davridir.

Yangi O'zbekiston farzandlari — yuzlab, minglab o'g'il-qizlarimiz turli sohalardagi yutuqlari bilan bu fikrni amalda isbotlamog'dalar. Ularning kuch-g'ayrati, ezgu harakatlari qanot berish maqsadida biz joriy yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qildik.

Chunki doimo izlanish, tashabbus va yangilikka, o'zligini namoyon etishga intilish yoshlik va tadbirkorlikka xos fazilatlar hisoblanadi.

Bu haqda gapirganda, bir fikrga alohida urg'u berishni istardim. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik azal-azaldan xalqimizning qonida, ong-u tafakkurida yashab kelmoqda. El-yurtimiz qadim

zamonlardayoq qo'li gul usta va hunarmandlari, mirishkor dehqonlari, yetti iqlimni kezgan savdogarlari, noyob mahsulotlari va noz-ne'matlari bilan butun dunyoga dong taratgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda yangi tadbirkorlar avlodi ana shu an'anani munosib davom ettirib, dadil maydonga chiqmoqda. Eng muhimi, biznes sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizda ham hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Biz ishbilarmonlik muhiti rivoji uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib beramiz. Joriy yilda qabul qilingan davlat dasturidagi maqsadlarga 36,5 trilion so'm va 460 million dollar mablag' yo'naltirish belgilangan ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oilaviy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish dasturlari doirasida 50 mingdan ziyod yurtdoshlarimizga Biznesni rivojlantirish banki orqali zarur moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatiladi. Jumladan, ularga garov talabisiz 100 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratiladi. Bundan tashqari, o'rta biznes vakillariga 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan imtiyozli kreditlar 7 yil muddatga beriladi. Umuman, joriy yilda barcha turdagi tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 millionga yaqin aholiga moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi.

Muxtasar aytganda, Yangi O'zbekistonni tadbirkorlik va biznes uchun eng qulay va jozibador mamlakatlardan biriga aylantirish yo'lida yangi amaliy qadam qo'yamiz.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlari xalqaro fan olimpiadalarida, madaniyat va san'at, IT va sport yo'nalishtiradagi nufuzli tanlov va festivallarda faol ishtirok etib, g'olib va sovrindor bo'lib kelayotganlari barchamizni quvontiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

MAHALLA TIZIMI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH YURTDOSHLARIMIZNI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, jamiyatimizda mahallaning o'rni va nufuzini yanada yuksaltirish, inson qadriini ulug'lashga qaratilgan keng ko'lami islohotlarni amalga oshirish, mahallabay ishlash tizimini samarali yo'lga qo'yish borasidagi katta xizmatlari, ko'p asrlik an'analarimizni asrab-avaylash, xalqimiz orasida do'stlik va hamjihatlik muhitiini mustahkamlash, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shgan munosib hisssasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Ismatova Adibaxon Kosimovna — Izboskan tumanidagi "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli, Andijon viloyati

"Do'stlik" ordeni bilan

Begmatov Uchkun Ravshanovich — Paxtach tumanidagi "Qarnabota" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Samarqand viloyati

Jaketov Amangeldi — Mo'ynoq tumanidagi "Uchsoy" ovul fuqarolar yig'ini raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Jo'raboyev Raximjon — Chortoq tumani nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli, Namangan viloyati

Iloxmov Muxtar Atxamovich — Uchtepa tumanidagi "Uchtepa" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Toshkent shahri

Isayev Oljas Kidirbayevich — Konimex tumanidagi "Uchtepa" ovul fuqarolar yig'ini raisi, Navoiy viloyati

Mengnorova Gulbaxor Temirovna — Angor tumani obodonlashtirish boshqarmasi uchastka ustasi, Xorazmdaryo viloyati

Namozov Oybek Ismoilovich — Peshku tumanidagi "Asr kimyo invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi, Buxoro viloyati

Raxmonqulov Dumaboy Tursunqulovich — Boyovut tumanidagi "Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Sirdaryo viloyati

Sultonov Anvar — Bo'ka tumanidagi "Xo'jaqo'rg'on" mahalla fuqarolar yig'ini raisining keksalar masalalari bo'yicha maslahatchisi, Toshkent viloyati

Shakirova Aynura Yukosovna — Oltiariq tumanidagi 89-oilaviy poliklinikasi patronaj hamshirasi, Farg'ona viloyati

II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordini bilan

Bazarova Norjon Bakayevna — Buxoro viloyati "Buvijonlar maktabi" rahbarining o'rinbosari

Qurbonova Marxabo Ismailovna — Uchqo'rg'on tumanidagi "Qo'g'ay O'lmas" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Namangan viloyati
Mirzayeva Gullola Abdusalomovna — Shahrisab shahridagi "Uymovut" mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi, Qashqadaryo viloyati

(Davomi 2-betda).



SAMIMIY QUTLOVLAR

Ko'p millatli xalqimizning ona yurt va tabiatga mehr-muhabbat va g'amxo'rlik, ezgulik va bag'rikenglik, bunyodkorlikka intilib, do'stlik va totuvlikda yashash, tinchlik va farovonlikning qadriga yetish kabi oliyjanob qadriyatlarini o'zida mujassam etgan qadimiy bayram Navro'zi olam munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat arboblari bilan samimiy tabriklar kelmog'da.

Xorijiy yetakchilar va hamkorlar mamlakatimizdagi aholi hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan ortga qaytmas siyosiy yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yuksak baholab, ularni to'liq qo'llab-quvvatlashini, davlatimizning xalqaro maydondagi nufuzi sezilarli darajada mustahkamlanganini qayd etib, O'zbekiston xalqiga bardavom ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.



**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblar!

Sizga Xitoy taqvim bo'yicha Yangi yil munosabati bilan yo'llagan tabrik maktubingiz uchun samimiy minnatdori bildirishga hamda Xitoy hukumati va xalqi nomidan, shaxsan o'z nomidan Sizni va O'zbekiston xalqini an'anaviy bayramingiz — Navro'z bilan chin dildan qutlashga ijozat bergaysiz.

Yaqinda Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifingiz

davomida biz sermazzun va samarali muzokaralar o'tkazib, Xitoy bilan O'zbekiston o'rtasida barcha sharoitda har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirishimiz va Xitoy — O'zbekiston umumiy taqdir hamjamiyatini yuksak ishonch bilan barpo etishimizni e'lon qildik, bu esa ikki davlatning turli sohalardagi hamkorligi uchun yangi tarixiy imkoniyatlarni ochadi.

Men Xitoy — O'zbekiston

munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qarataman va xalqlarimiz an'anaviy do'stligini mustahkamlash, Xitoy — O'zbekiston umumiy taqdir hamjamiyatini barpo etishni katta amaliy mazmun bilan boyitish sari davlatlarimiz modernizatsiyasiga ko'maklashish maqsadida ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish borasida Siz bilan birgalikda ishlashga tayyorman.

Sizga mustahkam sog'liq va faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, do'st O'zbekiston xalqiga baxt-saodat va farovonlik tilayman.

**SI SZINPIN,
Xitoy Xalq Respublikasi Raisi**



**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblar!

Qo'shma Shtatlar xalqi nomidan Sizga va O'zbekiston xalqiga uyg'unish va yangilanish elchisi — Navro'z ayyomi munosabati bilan eng ezgu tilaklarimizni yo'llamoqdaman.

O'tgan yil davomida biz Markaziy Osiyo va undan tashqarida tinchlik va farovonlikni ta'minlash uchun xalqlarimiz bilan do'stlik va mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash borasida hamkorlik qildik. Qo'shma Shtatlar ushbu yangi

imkoniyatlar davrida O'zbekistonning islohotlar va taraqqiyot yo'lini qo'llab-quvvatlaydi. Men xalqlarimiz va dunyodagi barcha insonlarga yanada yaxshi kelajak qurish yo'lida mamlakatlarimiz birgalikda ishlashi uchun yangi imkoniyatlarni intizorlik bilan kutaman.

Navro'z muborak!
Hurmat bilan,

**JOZEF BAYDEN,
Amerika Qo'shma Shtatlari
Prezidenti**

ULUG' ALLOMANING ISHONCHI VA DA'VATI



1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshekurov.
Musahhih S. Islomov.